

MUSTAQILLIK YILLARIDA TERMIZ DARYO PORTINING XALQARO SAVDO VA TRANZIT ALOQALARI

Djurayeva Ulmas Choriyevna

Termiz davlat universiteti Fuqarolik jamiyati kafedrası mudiri,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

djurayevau85@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-9033-1885>

UDK: 94(575.151-25):339"18/19"

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Termiz daryo portining rivojlanish bosqichlari, uning xalqaro savdo va tranzit aloqalaridagi strategik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida portning moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash tizimi va Amudaryo sharoitiga moslashtirilgan yangi turdagi kemalar qurilishi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Termiz daryo portining Afg'onistondagi tojik qochqinlarini qaytarishdagi gumanitar roli hamda milliy xavfsizlikni ta'minlashda harbiy flotiliyaning yangilanish jarayonlari arxiv ma'lumotlari asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Termiz daryo porti, Amudaryo, kemasozlik, "Gyurza" bronekateri, TDP-600, BMT gumanitar yuklari, transport logistikasi.

Аннотация: В данной статье освещаются этапы развития Термезского речного порта в годы независимости, а также его стратегическое значение в международных торговых и транзитных связях. В ходе исследования на основе архивных данных анализируются вопросы модернизации материально-технической базы порта, система подготовки кадров и строительство новых типов судов, адаптированных к гидрологическим условиям Амударьи. Кроме того, в статье раскрывается гуманитарная роль Термезского речного порта в репатриации таджикских беженцев из Афганистана и процессы обновления военной флотилии для обеспечения национальной безопасности.

Ключевые слова: Термезский речной порт, Амударья, судостроение, бронекатер «Гюрза», ТДП-600, гуманитарные грузы ООН, транспортная логистика.

Abstract: This article highlights the

developmental stages of the Termez River Port during the years of independence and its strategic significance in international trade and transit relations. Based on archival data, the study analyzes the modernization of the port's material and technical base, the vocational training system, and the construction of new types of vessels specifically adapted to the conditions of the Amudarya River. Furthermore, the article explores the humanitarian role of the Termez River Port in the repatriation of Tajik refugees from Afghanistan and the modernization processes of the military flotilla aimed at ensuring national security.

Keywords: Termez River Port, Amudarya River, shipbuilding, "Gyurza" armored boat, TDP-600, UN humanitarian cargo, transport logistics.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mustaqillik yillarida Termiz daryo porti ishchilarining soni va sifat tizimida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi daryo kemalari kelib qo'shildi, daryo porti sanoati barpo etilishi, transport sohasida innovatsion tarmoqlarning vujudga keltirilishi, eski daryo portida rekonstruksiya-modernizatsiya ishlarining amalga oshirilishi, zamonaviy texnika va texnologiyalarning joriy etilishi muhim o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1995-yili "Termiz daryo porti", "Xorazm daryo floti", "Qoraqalpog'iston daryo floti" ishlab chiqarish birlashmalari tashkil qilindi. Daryo suvining kamayishi va Orol dengizining qurib borishi tufayli suv yo'llari keskin qisqardi. Respublika daryo floti da 150 ga yaqin teploxod bor, suv

yo'llarining umumiy uzunligi 1000 km ga yaqin. Xalq xo'jaligi yuklari, asosan, Termiz - Hayraton, Sharlavuq — To'rtko'l, Xo'jayli — To'rtko'l, Xo'jayli — Beruniy, Qoratorov — Taxiatorov yo'nalishlarida tashiladi.

Ishiga ko'ra, kemalar transport, ovchilik, sanoat-xo'jalik, ma'muriy-xizmat, harbiy, ijtimoiy-ta'minot ishlarini bajaruvchi, kemalarga xizmat ko'rsatuvchi turlarga bo'linadi. Transport kemasida yuk, yo'lovchilar tashiladi; ovchilik kemasida kit va baliq ovlanadi; sanoat-xo'jalik kemasida suv ostidagi neft burg'ulanadi; xizmat ko'rsatuvchi kema shatakka oluvchi, brandvaxtlar, kabel kemasi, muzyoralar, doklar, suzib yuruvchi mayoq va boshqalarga bo'linadi.

Harbiy kemalar maxsus harbiy topshiriqlarni bajarish uchun mo'ljallanadi va tegishli harbiy texnika bilan qurollantiriladi. Bularga aviano-seplar, kreyserlar, havo mudofaasi kemalari, radiolokatsiya va dozor kemalari, suv osti kemalari, qo'riqchi kemalar, torpedo katerlari, suvga minalar qo'yuvchi va suvni minasizlantiruvchi kemalar kiradi. Harbiy kemalar va ularga o'rnatiladigan jangovar qurollar yangi elektron texnika yordamida boshqariladi[1:540-542].

1995-yilda portga 16 nafar kishi ishga jalb etilib, ishlab chiqarish quvvati 12 foizga o'sdi[2]. Termiz daryo porti kadrlar malakasini oshirish sohasida mavjud kamchiliklar bartaraf etilib, 1995-yilda 727 million so'm foyda ko'rildi[3]. 1995—2000-yillarda daryo porti ishchilarini bevosita ishlab chiqarishning o'zida tayyorlashga ham alohida e'tibor berildi, Termiz daryo portini korxonalarining ichki ta'limi ishchilarning umumta'lim saviyasini o'stirish asosida olib borildi, ularga o'zi tanlagan kasb va ixtisoslikni egallashi uchun zarur bo'lgan hunar-texnika ko'nikmalari berildi. Bu yerda ta'limning muhim vazifasi ishchilar malakasini oshirish, ilg'or mehnat usullarini o'rganish, fan va texnikaning yangi yutuqlarini targ'ibot qilishga qaratilgan edi.

1992—2000-yillarda 30 nafardan ortiq yosh ishchi-texniklar yangi kasbni egallab, ular ish bilan ta'minlandi, shulardan 15 nafari kasb-hunar kollejlari tugatgan yosh mutaxassislar tashkil etdi[4].

1991-1995-yillarda Termiz daryo portining

moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, ushbu sohada ishchi-muhandislardan o'rta ma'lumotlilar 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1996-2000-yillarda bu ko'rsatkich 19 foizga yetdi[5].

Mustaqillik yillarida daryo porti sohasi ishchi-xizmatchilari va xodimlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, maishiy turmush tarzini yaxshilash uchun katta amaliy ishlar bajarildi. 1995-2000-yillarda Termiz daryo ishchi va xizmatchilarning madaniy hordiq chiqarishi uchun klublar, madaniyat uylari va madaniyat saroylari qurildi. Mana shunday binolar Sherobod tumanida tashkil etildi. Bu davrda daryo porti sohasi ishchi va xizmatchilari turmushini yaxshilashga, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga ko'plab mablag'lar ajratildi. Masalan, Termiz daryo porti boshqarmasi ishchi-xizmatchilarini moddiy rag'batlantirishga 250 million so'm, ma'naviy-madaniy ishlarga 75 million so'm sarflangan. Termiz daryo porti qurilishi bo'limining ishlab chiqarishda o'rnak ko'rsatgan ilg'orlaridan 2 kishiga yengil avtomashina, 4 kishiga uy-joy berildi. 2000-yilda yo'l qurilishi bo'limi ishchi-xizmatchilarini mukofotlash uchun moddiy rag'batlantirish fondidan 7 million so'm ajratildi[6].

Termiz daryo porti jamoasi Afg'onistonda tojik qochqinlarini olib chiqishda muhim rol o'ynadi. Ta'kidlash joizki, 1992-1997-yillarda Tojikistonda sodir bo'lgan qardoshlar urushida 100 ming odam o'ldirildi, 26 ming xotin beva bo'ldi, 55 ming bola yetim qoldi. Tojikistondan 1,5 million odam qirg'indan tirik qolish maqsadida qo'shni davlatlardan boshpana topish uchun qochishga majbur bo'ldi. Shundan 1 millioni Afg'onistonda boshpana topdi. Bular asosan qariyalar, bolalar va xotinlar edi[7].

1993-yilning martida BMTning qochoqlar ishi bo'yicha Oliy Komissari Boshqarmasi Afg'onistonning Qunduz viloyatida o'rnatilgan tojik qochoqlarini qaytarish bo'yicha ishlarni boshladi. May oyiga kelib bu ishlar Mozori-Sharifdagi qochoqlarni ham qamrab oldi. 1993-yil iyun oyiga kelganda Mozori-Sharifdagi Saxi lagerida o'rnatilgan tojik qochoqlari oldiniga BMTning yuk mashinalarida Hayraton portidagi temir yo'l

terminaliga, undan Termiz orqali Shaartuzga olib ketildi. 1994-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, Afg'onistondan 26500 qochoq o'z yurtlariga qaytarildi[8].

1997-yil 25-may kuni Hayraton shahri tolibon kuchlari tomonidan vaqtinchalik bosib olingandan so'ng, Ayritomdagi Do'stlik ko'prigi yopib qo'yiladi. Ikki haftadan keyin bu shahar Shimoliy alyans qo'shinlari tomonidan qaytarib olinadi. Afg'onistonda o'zaro urushlar avj olgan bir sharoitda tojik qochoqlarining bu yurtda qolishi xavfli edi. Shu bois BMTning qochoqlar ishi bo'yicha Oliy Komissari Boshqarmasi Mozori-Sharifda turgan tojik qochoqlarini olib chiqishni tezlashtirdi. 1997-yil sentyabr-oktyabr oylarida o'n minglab qochoqlar barjalarda Termiz portiga olib kelinib, temir yo'l orqali o'z yurtlariga jo'natildilar.

Afg'onistondagi og'ir vaziyatga qaramay, yuk tashish ishlari to'xtab qolmadi. 1997-yilda 80 ming tonna yuk qayta ishlanib, 44,3 ming tonna yuk tashildi. 1998- yilda 186,9 ming tonna qayta ishlandi, barjalarda 89,8 ming tonna yuk tashildi, shundan 1998-yil 1-avgustga qadar ishlarning 80 foizi bajarildi[9].

1998-yilda O'zbekiston Respublikasi daryo flotini 1998-2010-yillar davomida rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyaga asosan Amudaryoda suzuvchi eskirgan barcha kemalarni yangilash rejalashtirildi[10]. Keyinchalik suv resurslarining cheklanishi natijasida ushbu rejalar amalga oshmadi. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasi hududida ichki kemalarni suzish qoidolari tasdiqlandi[11]. Mazkur qarorga asosan Termiz daryo porti ixtiyorida bo'lgan eski kemalar harakati to'xtatildi.

1999-yillarda daryo porti orqali yuk tashishning umumiy hajmi 35 mln 4 ming tonnani, yo'lovchi tashishdan tushumlar 854 mln 330 ming so'mni, yuk tashishdan olingan daromad 5 mlrd 354 mln 546 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan yuk tashishning umumiy hajmini 87,4%, yo'lovchi tashishdan tushumlar 154,8%, yuk tashishdan olingan daromad 139 %zni tashkil etgan[12].

2000-yilga kelib Termiz daryo portida ish hajmi bir muncha kamaydi. Buning sababi,

Amudaryo ustidan O'zbekiston Respublikasi va Afg'oniston davlatlarining bir-biri bilan bog'lovchi avtomobil va temir yo'l ko'prigining ishga tushirilishi bo'lsa, ikkinchidan SSSR negizida bir necha mustaqil davlatlarning tashkil topishi natijasida Afg'oniston bilan iqtisodiy aloqalarning cheklanishi bo'ldi. Ayniqsa, Afg'onistondagi beqaror vaziyat tufayli tranzit yuklarni jo'natish qisqardi.

2001-yil 7-oktyabrida AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiya qo'shinlari Afg'onistondagi terrorchi guruhlariga qarshi harbiy amaliyot boshlashi Termiz daryo portining keyingi taraqqiyotiga kuchli turtki bo'ldi. O'sha yilning noyabr oyida Mozori-Sharif shahri tolibon kuchlaridan tozalangach, Termiz portidan BMT yuklari orilgan barjalar Afg'onistonning Hayraton portiga keldi. Natijada Termiz daryo portining ish faoliyati kengayib, tranzit savdoni yuksaltirish imkoniyatlari yuzaga keldi.

Keyingi yillarda Afg'oniston shimolida nisbiy tinchlik o'rnatilgani, qolaversa, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi tufayli Termiz porti tovarlarni bir mamlakatdan ikkinchisiga va aksincha, eksport va import qilishda muhim rol o'ynay boshladi. Termiz porti jamoasi barcha turdagi mahsulotlar hamda BMTning insonparvarlik yuklarini Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston va Afg'oniston Respublikalariga yetkazib turdi.

Termiz daryo portida savdo kemalari va barjalaridan tashqari, yana Termiz flotiliyasi kemalari ham qo'nim topgan. XXI asr boshlariga kelib flotiliya tarkibidagi kemalar ma'nan va jismonan eskirib qolganligi sababli modernizatsiyaga muhtoj edi. Ayniqsa, 1997-yilda Afg'onistondagi Tolibon kuchlarining Amudaryo bo'yicha chiqishi O'zbekiston harbiy flotiliyasini yangilash zaruriyatini yuzaga keltirdi. Negaki, qo'shni davlatdagi notinchlik O'zbekiston davlat chegaralarining tez-tez buzilishi hamda narkotik moddalar savdosining kuchayishiga sabab bo'lmoqda edi.

O'zbek-afg'on chegarasini to'liq yopish uchun o't ochish quvvati yuqori bo'lgan bronekaterlar (qoplamali katerlar) juda zarur edi. Bunday katerlar chegaraning katta qismini

nazorat qilish bilan birga qirg'oqbo'yidagi o't ochish nuqtalarini yo'q qilish imkoniyatiga ham ega edi. 1998-yilda O'zbekiston harbiy flotiliyasi tarkibida 3 dona eskirib qolgan "Shmel" rusumli katerlar ishlab turar edi. Oldiniga ularni kapital remonddan chiqarib, foydalanish muddatini yana 10-15 yilga cho'zmoqchi bo'ldilar. Lekin keyinchalik, yangi katerlarni qurish maqsadga muvofiq ekanligi oydinlashdi. 2001-yil 11-sentyabr voqealari va Afg'onistonga NATO kuchlari kiritilganidan so'ng O'zbekistonga yangi tipdagi katerlarni AQSh hisobidan qurish imkoniyati paydo bo'ldi.

O'zbekiston harbiy flotiliyasini modernizatsiyalashda AQSh davlat departamentining AIP, ya'ni "Aviatsiya vositalari yordamida chegarani noqonuniy kesib o'tishni oldini olish" dasturi asosida amalga oshirildi. 2003-yil 29-iyunida AQSh hukumati Ukrainaning "Progress" firmasiga yangi keter loyihasini yaratish va qurish uchun 5,6 mln dollar miqdorida pul o'tkazdi. Shartnomaga asosan Ukrainadan 58150-loyihalari "Gyurza" rusumli ikki dona daryo bronekaterini O'zbekistonga olib kelish ko'zda tutildi. Bronekater loyihasi Ukraina Respublikasining Nikolayev shahridagi "Kemasozlik ilmiy-tadqiqot va loyihalash markazi" davlat korxonasida bosh konstruktor Sergey Kripko boshchiligidan yaratildi. Ushbu kemalar Kiyevdagi "Leninskaya kuznitsa" nomli kemasozlik zavodida qurildi[13].

Bronekaterlar Amudaryoning o'ziga xos gidrologik sharoitlari uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, juda sayoz suv oqimida yuqori tezlikda harakatlanuvchi dvigatelga ega edi. Bu kemalarda kechayu kunduz va har qanday ob-havo sharoitida foydalanish imkonini beruvchi murakkab datchik qurilmalari mavjud.

«Jayhun» deb atalgan birinchi bronekater 2004-yil 2-oktabrda suvga tushirildi va Kiyev suv omborining chuqurligi 8-10 metr bo'lgan Kanev rayonida sinovdan o'tkazildi. Sinov ishlari yakunlangach, 2004-yil 29-oktabr kuni An-124 «Ruslan» samolyotiga yuklanib, Termizga olib kelindi. «Sayhun» deb atalgan ikkinchi bronekater esa noyabr oyida sinovdan o'tkazildi va o'sha yilning dekabrda O'zbekistonga keltirildi. Termizda yig'ilgan

mazkur bronekaterlar 2005-yil 13-yanvar kuni suvga tushirildi. Shu kuni AQShning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Jon Purnell har ikki katerni O'zbekiston Milliy xavfsizlik xizmati chegara qo'shinlariga taqdim etdi[14].

"Gyurza" ning uzunligi 20 metr, eni 4,77 metr, suv sig'imi 34 tonnani tashkil etadi. Katerning cho'kishi 0,84 metr bo'lib, sayoz joylarda harakatlanish imkonini beradi. Yuqori tezligi soatiga 55 km, tejamli tezligi 20 km/s. To'liq tezlikda suzish uzoqligi 400 km, tejamli tezlikda 1000 kmga to'g'ri keladi. Ekipaj a'zolarining soni 5 kishi. Zarur bo'lganda qirg'oqqa desant tushirish imkoniga ham ega. Oziq-ovqat zapasi 7 kunga yetadi[15].

"Termiz" daryo porti o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 4-iyuldagi "Termiz transportining moddiy-texnik bazasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 187-14-sonli, 2016 yil 12 fevraldagi 37-1-son "Termiz transport uzeline faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida", 2018-yil 19-sentyabrdagi 742-29-son "Savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-logistika ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yopiq qarorlari doirasida amalga oshiradi.

Tashkilotning yagona ta'sischisi O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining Davlat chegarasini qo'riqlash qo'mitasi bo'lib, shu munosabat bilan «Termiz» daryo portining vazifalaridan biri ham respublika Davlat chegarasini muhofaza qilish sohasidagi davlat organlariga ko'maklashish hisoblanadi.

Termiz daryo porti faoliyatining asosiy shakli daryo transportida yuklarni Afg'oniston Islom Respublikasiga yoki undan olib o'tish va Termiz portining sig'imi 300 ming tonnadan ortiq bo'lishini hisobga olgan holda yuklarni tashishdir. Bu boradagi ishlarni yaxshilash uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi:

Eron – Turkmaniston – O'zbekiston – Tojikiston – Qirg'iziston yo'nalishlari bo'yicha tovarlarni reeksport qilishning qo'shimcha yo'nalishlari ishlab chiqildi;

XXR – O'zbekiston – AIR yo'nalishi bo'ylab 40 futli konteynerlarni qayta yuklash

uchun yangi yoʻnalish yotqizildi.

Ishlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi bilan bir qatorda, inson omilini faollashtirishning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlgan daryo porti ishchilar malakasini oshirish alohida ahamiyatga egadir. Termiz daryo porti ishchilarning yuqori malakasi yangi mashina va mexanizmlarning tuzilishi va ishlash prinsipini tez oʻzlashtirish, asbob va moslamalarni bilib oʻrnatish, talab qilinadigan rejimga moslab sozlash va ishlatish imkonini berdi. Xususan, Termiz daryo porti tarmoqlari koʻplab yangi jihozlar bilan qurollantirildi. Shu sababli ishchilar malakasini oshirishga alohida eʼtibor qaratildi.

Chunonchi, Termiz daryo portida 2010-yildan boshlab masʼuliyati cheklangan jamiyat oʻziga tegishli kemasozlik uchastkasida kema qurish faoliyatini boshlab, 2020-yilga qadar jami 4 dona: uchta yuk koʻtarish qobiliyati 500 tonna boʻlgan barja, asosiy dvigatellarining umumiy quvvati 800 ot kuchiga ega boʻlgan bitta shataklovchi teploxodni qurib foydalanishga topshirdi. Qurilgan kemalar quyidagilardir:

2013-yilda yuk koʻtarish quvvati 500 tonna boʻlgan “Toshkent” quruq yuk barjasi qurildi;

2014-yilda yuk koʻtarish quvvati 500 tonna boʻlgan “Samarqand” quruq yuk barjasi qurildi;

2018-yilda yuk koʻtarish quvvati 500 tonna boʻlgan “Jizzax” quruq yuk barjasi qurildi.

Yuqoridagilardan tashqari, Termiz daryo porti jamoasi Oʻzbekistondagi eng katta shatakchi kemani qurishga kirishdi. Kemani loyihalash ishlari Rossiyadagi “Stapel” — Rostov markaziy loyihalash-konstruktorlik byurosiga (RSPKB – Rostovskoe sentralnoe proektno-konstruktorskoe byuro) topshirildi. 2018-yil 8-iyunda “Stapel” aksionerlik jamiyati RDB 68.05 loyihali “TDP-600” shatakchi

kemaning ishchi konstruktorlik hujjatlarini tayyorladi va buyurtmachi “TERMIZ DARYO PORTI” MChJ ga topshirdi. Ushbu kema Termiz daryo portining oʻzida qurildi[16].

2019-yilda Surxondaryo viloyatidagi DXX Chegara qoʻshinlari huzuridagi «Termiz Daryo Porti» kompaniyasining kemalarni taʼmirlash ustaxonasida Oʻzbekiston tarixida birinchi marta TDP-600 rusumli shatakchi kema qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu kemaga ulugʻ muhaddis olim “At-Termiziy” nomi berilgan boʻlib, bir yoʻla 800 tonna yukni tashish quvvatiga ega. Kema qariyb 11 oyda qurib bitkazilgan. Korroziya suvdagi kema qobigʻini yemirmasligi uchun maxsus boʻyoq ishlatilgan. Yangi qurilgan shatakchi kema Termiz daryo portida hozir foydalanilayotgan suv transportlaridan ikki baravar kuchliligi bilan ajralib turadi[17]. Shuningdek, yuk koʻtarish quvvati 500 tonna boʻlgan quruq yuk barjasini qurish ishlari olib borilmoqda.

Yuqoridagilarga qoʻshimcha ravishda “Alisher Navoiy”, “Termiz”, “E.Oʻzbekov”, “Surxon tongi” teploxodlari hamda “Oʻzbekiston 30 yilligi”, “Surxon” barjalari ham faoliyat yuritmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilganda, mustaqillik yillarida Termiz portini modernizatsiya qilish yuzasida koʻpgina amaliy ishlar bajarildi. Portga eng yangi texnikalar keltirildi. Eng muhimi, portning oʻzida yangi tipdagi kemalarni qurish yoʻlga qoʻyildi. Bundan tashqari, Termiz daryo porti bir qator gumanitar tadbirlarda ham qatnashdi. Daryo portini oʻrta boʻgʻindagi kadrlar bilan taʼminlash maqsadida Termiz kasb-hunar maktabida kichik hajmli kema mexanigi-yordamchisi va motorchi mutaxassislarini tayyorlash boshlandi.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. – B 540-542.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 361-fond, 1-roʻyxat, 11-ish, 26-varaq.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 361-fond, 1-roʻyxat, 10-ish, 6-varaq.
4. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 361-fond, 1-roʻyxat, 98-ish, 25-varaq.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 70-fond, 1-roʻyxat, 32-ish, 146-varaq.

6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 70-fond, 1-ro‘yxat, 6-ish, 8-varaq.
7. <https://www.bbc.com/russian/features-38460797>
8. <https://www.caa-network.org/archives/9236>
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 361-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 12-varaq.
10. O‘zMA, M-11-fond., 1-ro‘yxat, 891-ish, 5-varaq.
11. O‘zbekiston Respublikasi avtomobil va daryo transport agentligining 1999-yil 9-iyulda “O‘zbekiston Respublikasi ichki kema yo‘llarida suzish qoidalari to‘g‘risida”gi №796-sonli qarori. lex.uz
12. “Surxon tongi” gazetasi, 2000-yil 23-fevral, №13.
13. https://morchasti-afgan.ucoz.ru/blog/posle_pereformirovanija_chasti/2010-02-21-3
14. <https://centrasia.org/newsA.php?st=1105568040>
15. https://morchasti-afgan.ucoz.ru/blog/posle_pereformirovanija_chasti/2010-02-21-3
16. https://www.stapel.ru/about/news/ao_rtspkb_stapel_zavershilo_razrabotku_rabochey_ko_nstruktorskoy_dokumentatsii_buksirnogo_sudna_quot_/
17. <https://daryo.uz/2019/08/03/ozbekistonda-birinchi-shatakli-kema-qurildi/>